

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 20 - dekabr

457-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi bojxona qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasining 2023-yil 4-dekabrda 2/10/01-23-5945-sonli xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi bojxona qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasining 2023-yil 4-dekabrda 2/10/01-23-5945-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi bojxona qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasining egaligida bo'lgan Nukus shahri "Qumbiz awil" MFY hududidagi 0,2794 gektar yer maydoni Nukus shahar hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) Nukus shahar hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov